

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar

103,9 %

O'sish sur'ati

**10 109,2
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

70,1 %

Kichik
tadbirkorlikning
ulushi

**Xizmatlar
sohasi**

59,5 %

Korxonalar va
tashkilotlar
ulushi

**3 056,4
ming so'm**

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
xizmatlar

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 109,2 mlrd.** so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 308,3 mlrd.** so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

**10 109,2
mlrd. so'mga**

**Xizmatlar
hajmi**

**1 308,3
mlrd. so'm**

**Hajmning
o'sishi**

103,9 %

O'sish sur'ati



3

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


2020- yil yanvar-dekabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	10 109,2	103,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	494,6	111,2
Moliyaviy xizmatlar	1 593,8	129,4
Transport xizmatlari	2 240,8	101,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 178,6	104,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	276,8	92,0
Savdo xizmatlari	3 310,4	99,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	267,6	91,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	369,7	120,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	123,1	93,0
Ijara xizmatlari	256,5	97,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	345,1	98,2
Shaxsiy xizmatlar	331,0	93,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	127,9	86,4
Boshqa xizmatlar	371,9	93,1

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **32,7 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



■ 2019- y. yanvar-dekabr ■ 2020- y. yanvar-dekabr

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**29,4 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**20,2 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**11,2 %**) va transport xizmatlarida (**1,6 %**) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha 2019- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,7 %** ni tashkil etdi, bu esa **3 310,4** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning hajmi **2 897,6** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **32,9 %** iga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **86,4 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

4,8 %



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

86,4 %

8,8 %



Taqqoslash uchun: 2019- yilda chakana savdo ulushi **84,2 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi **1 593,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning hajmi **1 206,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **15,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning ulushi **13,7 %** ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **387,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **129,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning o'sish sur'ati **143,1 %** ga yetgan.




Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning o'tgan davrda sug'urta xizmatlarining ulushi **4,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2019- yilda moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmining **89,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar




Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi **494,6** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2019- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **111,2 %** ga yetdi.



Taqqoslash uchun: 2019- yilda ushbu xizmat turi hajmi **440,5** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,0 %** igagina teng bo'ldi. O'sish sur'ati **113,0 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

262,6
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

369,7
mlrd. so'm

2019- y.



2020- y.
yanvar-
dekabr

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **369,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi. 2019-yilga nisbatan o'sish sur'ati **120,2 %** ni tashkil etdi.

93,8 %

2019- yilga nisbatan
o'sish sur'atlari, % da

120,2 %

Taqqoslash uchun: 2019- yilda xizmatlar hajmi 262,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019- yilda o'sish sur'ati **93,8 %** darajasida qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

266,0

276,8

2019- y.

Yanvar-
dekabr

2020- y.



O'sish
sur'ati, % da


110,4

92,0

2019- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **10,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,8 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilda ularning ulushi **92,1 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Yanvar-dekabr

2019- y.

2020- y.

120,4 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

123,1
mlrd. so'm

121,3 %

2019- yilga
nisbatan
o'sish
sur'ati

93,0 %

1,4 %

Xizmatlar-
ning jami
hajmidagi
ulushi

1,2 %

15

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi


2020- yil yanvar-dekabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushi Qarshi shahrida—**44,5 %** (2019- yilda — **44,5 %**)ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mirishkor tumanida — **2,3 %** (2019- yilda — **2,3 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2019- y.
Qashqadaryo viloyati *)	10 109,2	103,9	111,1
Qarshi sh.	4500,8	105,1	115,5
Shahrisabz sh.	428,1	102,5	121,2
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	419,1	102,8	110,3
Dehqonobod	291,4	110,2	103,8
Qamashi	367,9	103,1	104,1
Qarshi	444,7	101,8	105,4
Koson	589,4	103,8	105,2
Kitob	524,2	104,4	105,1
Mirishkor	231,6	105,8	118,1
Muborak	381,4	102,5	96,9
Nishon	366,3	104,4	107,7
Kasbi	256,5	103,0	105,6
Chiroqchi	495,0	102,0	104,8
Shahrisabz	365,9	101,0	103,9
Yakkabog'	446,9	100,6	106,7

*) tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 056,4
ming so'm

Hajmning o'sishi

345,7 ming
so'm

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 056,4** ming so'mga yetdi.

2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil etdi.

102,0 %

Taqqoslash uchun: 2019- yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 710,7** ming so'mni tashkil etdi.

O'sish sur'ati


18

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi tumanlar o'rtasida Qarshi shahrida **16 254,1** ming so'mdan Chiroqchi tumanida **1 192,9** ming so'mgacha oraliq'ida kuzatildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmining asosiy ko'rsatkichlari, ming so'm (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)



Chiroqchi tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu tumanda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- yanvar holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

17 963
birlik

2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

116,4 %

2 537
birlikga

2019- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

Ularning umumiy sonidagi ulushi

59,5 %



20

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020-yil yanvar-dekabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **59,5 %**, sanoat **13,5 %**, qurilish **10,9 %** ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi **16,1 %** ga to'g'ri keladi.


2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,1 %** ni, sanoat **13,4 %** ni, qurilish **12,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,4 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**43,1** %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **7,9** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,3** % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0** % ga teng bo'ldi.

Boshqa turdagi xizmatlar – 37,9

Savdo – 43,1

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 7,9

Tashish va saqlash – 5,3

Sog'liqni saqlash – 3,8

Axborot va aloqa – 2,0


Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **3,8** % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar




Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **70,1 %** ni tashkil etdi.


2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **73,4 %** ga to'g'ri keldi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: (75) 221-44-32